

YOSHLAR
OVOZI

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!

#47 (16701)
2025-yil 26-noyabr,
chorshanba

“YASHIL
MAKON”
UMUMMILLIY
LOYIHASI

DOIRASIDA
KO‘CHAT EKISH
BOSHLANDI

➔ 3-bet

**8 OYDA
MAHALLA
QANDAY
O‘ZGARDI?**

➔ 2-bet

**YOSHLARNI
ESHITAMIZ**

**KONTENT
YARATUVCHILAR
BILAN OCHIQ
MULOQOT**

➔ 2-bet

2+6

**KELAJAKKA
KATTA
INVESTITSIYA**

➔ 3-bet

**“CITES
COP20” DA
SAN’AT
ASARLARI**

➔ 4-bet

BURNOUT

➔ 4-bet

**JADIDLAR
VA GENDER
TENGLIGI**

➔ 4-bet

Toshkent shahridagi Yoshlar ijod saroyida yosh kontent yaratuvchilar, jurnalist va blogerlar bilan “Yoshlarni eshitamiz” shiori ostida navbatdagi ochiq muloqot tashkil etildi. Tadbir Prezident Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 30-iyun kuni yoshlar bilan ochiq muloqotida ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida rejalashtirilgan turkum uchrashuvlarning davomi sifatida o'tkazildi.

Muloqotda tashkilotchi va mas'ul rahbarlar yoshlar bilan bevosita suhbatlashib, ularning fikr va takliflarini eshitdi, dolzarb muammolar bo'yicha amaliy yechimlar belgilandi. Tashabbusning asosiy maqsadi yoshlar bilan ochiq muloqot madaniyatini kuchaytirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va raqamli maydondagi axborot muhitini sog'lomlashtirishdir.

Samarqandda boshlangan Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdoni tartibga solish to'g'risidagi konvensiya (CITES) Tomonlar konferensiyasining 20-sessiyasi (CITES Cop20) doirasida “Samarqand – 2025” IV xalqaro haykaltaroshlik simpoziumi o'tkazilmoqda.

To'rt yildan buyon an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan mazkur tadbir aholining ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish, xorijlik ijodkorlar bilan ekologiya va atrof-muhit sohasida samarali ijodiy hamkorlik, tajriba almashishni yo'lga qo'yish, tabiatga bag'ishlangan badiiy asarlar orqali shaharlarning madaniy muhiti va landschaft qiyofasini rivojlantirishga qaratilgan.

Bu yil “Bizning sayyoramiz – bizning uyimiz!” shiori ostida tashkil etilgan simpoziumda turli mamlakatlardan kelgan 20 nafarga yaqin mashhur haykaltarosh granit toshdan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga bag'ishlangan san'at asarlarini yaratmoqda.

Yoshlar deganda kuch-g'ayrat, shijoatga to'la, ko'zlari chaqnagan yigit-qizlar ko'z oldimizga keladi. Ammo real hayotda bari boshqacha bo'lishi mumkin. Aksar yoshlar ko'zida ma'yuslik, horg'inlik va loqaydlik. Ular nega erta charchayapti, ishtiyoqni nega erta yo'qotaypti? Kuch, imkon, orzu-havas jo'sh uradigan bir pallada ular burnout, hissiy charchoq kuzatilmoqda. Bu sindrom asosan professional sohalarida keng o'rganilgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda yoshlar orasida keng tarqalib borayotgani aniqlanmoqda.


**HUQUQIY
TEXNOLOGIYALAR
XAVFSIZLIGI**

➔ 3-bet

AXBOROT
XAVFSIZLIGIDAN
TORROQ,
ANIQROQ
VA YURIDIK
SOHAGA
QARATILGAN
TUSHUNCHA

Jadidlar fikricha, jamiyatni ma'naviy va madaniy yuksaltirishning ilk sharti ayollarning savodini oshirish edi. Ayol ona, tarbiyachi, kelajak avlodga ta'sir ko'rsatuvchi muhim shaxs sifatida ko'rilgan. Biroq onalarimiz o'sha davrda bilim va tarbiya o'rni erlari bilan urishib-talashib qizlariga mol yig'ishni yaxshi ko'rishlari ta'kidlangan.

Jadidlar oila va jamiyatda o'qimishli ayollarning o'rni va mavqeyini tushungan. “Xotinlarni o'qitmoq va ularning aqlariga jilo bermoq va erlari bir-bir la yaxshi muomala qilmoq va bolalarini tarbiya qilmoq va zindakorchilikni yaxshi bilmaklari xususida ta'lim albatta zarurdir”, degan fikrlarni aytib o'tishgan va shunga mos tarzda harakat qilganlar.



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

YOSHLARNI ESHITAMIZ

KONTENT YARATUVCHILAR BILAN OCHIQ MULOQOT

Tadbirda ijtimoiy tarmoqlardagi kontentning yoshlar tarbiyasiga ta'siri alohida muhokama qilindi. Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev o'z nutqida bu jarayonning ikki tomonlama xususiyatiga to'xtalib, ma'no va maqsaddan xoli kontentlar yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarni rivojlanish, o'rganish va tarbiya maydoniga aylantirayotgan loyihalar va blogerlar faoliyati yuqori baholandi.



Bugungi kunda YouTube va boshqa platformalarda keng auditoriyaga ega bo'lgan qator loyihalar yoshlar uchun ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda. "Bek va Lola" multfilmi bir yarim yil ichida qariyb 148 million marta ko'rilgani, "Milliy karaoke", "Ibrat farzandlari", "Ustoz AI", "Mutolaa", "Yashil makon" kabi loyihalarining millionlab tomoshabin to'plaganini bu yo'nalishga qiziqish yuqori ekanini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Chumoli, O'rikguli, Piyodachi, Millat umidi, Jamshid Ziyonov, Isom TV, Texnoplov kabi blogerlar ijodida kasb-hunar, ijtimoiy qadriyatlar va vatanparvarlik g'oyalari yetakchi o'rin tutayotgani qayd etildi.

Muloqotda agentlik rahbariyati yoshlar bilan ishlashda raqamli maydondagi raqobatni to'g'ri baholash zarurligini ta'kidladi. Zamonaviy axborot muhitida ovozi band va diqqatni jalb etuvchi kontent tez ommalashayotgan bir paytda tarbiya va bilim beruvchi loyihalarni qo'llab-quvvatlash jamiyat uchun muhim ekani tilga olindi.

Tadbir yakunida agentlik yoshlar uchun ijobiy axborot muhiti kengaytirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda ishlarni davom ettirishini ma'lum qildi:

- ma'rifiy va tarbiyaviy loyihalarni keng targ'ib qilish;



- ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan blogerlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- yosh kontent yaratuvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularni kasbga yo'naltirish va mediasavodxonlik bo'yicha o'qitish;
- yoshlar ongiga salbiy ta'siri bo'lgan materiallar bo'yicha jamoatchilik pozitsiyasini shakllantirish.

Amaliyot ofisi 1-mavsum

13-NOYABRDA
MAHALLADAGI YOSHLAR
YETAKCHILARI UCHUN
YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI MARKAZIY
APPARATIDA AMALIYOT
O'TASH IMKONINI
BERUVCHI "AMALIYOT
OFISI"NING 1-MAVSUMI
BOSHLANGAN EDI.



Loyihada ishtirok etish uchun 3 816 nafar yoshlar yetakchisi ariza topshirib, ular orasidan faoliyati va tashabbuskorligi bilan ajralib turgan 18 nafar yetakchi amaliyot uchun saralab olingan. Ariza qabul qilish jarayonida yoshlar yetakchilarining erishgan yutuqlari va ko'nikmalari: xorijiy tillarni bilish darajasi, tanlovlar sovrindorligi, shaxsiy tashabbuslari, mukofotlar bilan taqdirlanganligi kabi mezonlar inobatga olingan.

Ikki hafta davom etgan amaliyot jarayonida yoshlar yetakchilari Agentlik markaziy apparatining boshqarmalari va bo'limlari faoliyati bilan tanishib, davlat boshqaruv hamda loyiha menejmenti yo'nalishlari bo'yicha amaliy tajriba orttirdi.

"Amaliyot ofisi" yoshlar yetakchilarini kelajak rahbarlari sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy platforma vazifasini bajariishi kutilmoqda. Maxsus dastur asosida amaliyotchilarga ijro intizomi,

media va moliyaviy savodxonlik, inson resurslarini boshqarish, yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirish kabi yo'nalishlarda seminarlar o'tkazilishi belgilangan. Mega loyihalar rahbarlari bilan ochiq muloqotlar tashkil etildi.

Amaliyot davomida ishtirokchilar Islom sivilizatsiyasi markazi, Yoshlar ijod saroyi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi, "G'alaba" bog'i, Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va Venchur jam'armalari faoliyati bilan tanishdi.

Amaliyot yakunida barcha yoshlar yetakchilari o'z hisoboti va taqdimotlarini biriktirilgan bo'lim rahbarlari bilan birgalikda Agentlik direktoriga namoyish etdi.

"Amaliyot ofisi"ning 1-mavsumi 27-noyabrga qadar davom etadi.

Nuriddin SHODIYEV,
Mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodologik ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi

Yoshlar yetakchisi

MAHALLA DARAJASIDA

YOSHLAR BILAN ISHLASH JARAYONINI YANADA SODDALASHTIRISH MUHOKAMA QILINDI



24-noyabr kuni Samarqand shahrida mahallalarda "Xatlov" jarayonini sifatli tashkil etish, mas'ullar bilim va ko'nikmasini oshirishga qaratilgan respublika o'quv seminari bo'lib o'tdi. Tadbir mahallalarda yoshlar bilan ishlash jarayonlarini samarali tashkil qilish, tizimdagi hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlashga qaratildi.

Seminarda Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasi raisi Qahramon Quronboyev va Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev ishtirok etib, "yettilik" tarkibining mahalladagi yoshlarga oid masalalarni hal qilishdagi o'zni, vazifalari va o'zaro hamkorlik tartiblari yuzasidan ochiq muloqot olib bordi.

Uchrashuvda to'plangan amaliy tajribalar, mahallalar kesimida kuzatilayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar muhokama qilindi. Mahalla darajasida yoshlar bilan ishlash jarayonini yanada soddalashtirish, mas'ullar o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Qatnashchilarga faoliyatda qo'llash uchun zarur metodik tavsiyalar ham berildi.

III TADBIR

2025-yilda Jaloil mahallasida sport bo'yicha 111 ta tadbir o'tkazildi. Bu har uch kunda bitta sport mashg'uloti yoki musobaqa bo'lib o'tganini anglatadi:

mini futbol mashg'ulotlari – 32 marta;
shaxmat-shashka to'garaklari – 16 marta;
kibersport bo'yicha turnirlar – 25 ta;
sport kechliklari va musobaqalar – 38 ta;
qamrov – 370 nafar yosh.

■	■	■
"Yashil"	"Sariq"	"Qizil"
toifa:	toifa:	toifa:
594	262	36
nafar	nafar	nafar

Mahalla drayveri:
savdo va xizmat ko'rsatish, dehqonchilik.

– Rostini aytsam, avvallari ishdan keyin ko'chada yigitlar bilan bekor o'tirib qolardik, – deydi mini futbol to'garagi ishtirokchisi Ernazar Ahmedov. – Vaqtimiz rejasiz, tartibsiz o'tardi. Hozir butunlay boshqacha: mahallada doimiy sport mashg'ulotlari yo'lga qo'yilgach, bekorchi odatlar yo'qoldi. Har kech futbol maydonchasiga boraman. Shu yer bizning asosiy to'planadigan, vaqtimizni mazmunli o'tkazadigan joyga aylandi. Sport bilan shug'ullanish faqat jismoniy emas, ruhan ham o'zgarish berdi. Jamoa bo'lib o'ynaganimiz sayin bir-birimizni ko'proq tushunyapmiz, hurmat oshmoqda.

Sport og'ir toifadagi yoshlarni jamiyatga qaytarishning eng samarali yo'li ekanini dunyo tajribasida ham isbotlangan. Jaloildagi amaliyot ham buni ko'rsatmoqda.

Yil davomida 44 ta ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazilib, 250 nafar yosh va ota-onalar qamrab olindi. Bugungi kunda yoshlar orasidagi asosiy muammolardan axborot xavfsizligi, internetdagi yolg'on ma'lumotlar, firibgarlik, zararli kontentning ko'pligidir. Shu bois Kamoladdin Egamov bu borada alohida tashabbuslar bilan chiqqan.

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

8 OYDA MAHALLA QANDAY O'ZGARDI?

Kamoladdin EGAMOV

Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi
Jaloil mahallasi yoshlar yetakchisi

AT VA RAQAMLI KO'NIKMALAR

Jaloilda raqamli savodxonlik, axborot texnologiyalarini chuqur o'zlashtirish va yoshlarni AT sohasiga yo'naltirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Xususan, yil davomida kibersport bo'yicha 13 ta loyiha, kompyuter savodxonligini oshirishga qaratilgan 9 ta mashg'ulot, internetdan to'g'ri va xavfsiz foydalanish bo'yicha 12 ta seminar tashkil etildi. Ularga 90 nafar yosh qamrab olindi. Mazkur faoliyatlar natijasida yoshlarning kompyuter bilan ishlash ko'nikmalari oshdi, zamonaviy kasblarga qiziqishi ham kuchaydi. Mahallada AT yo'nalishida mustaqil o'quv markazini tashkil etish g'oyasi ham ilgari surilib, bu tashabbus kelajakdagi rejalariga kiritildi.

– Avvallari kompyuterdan faqat bekorchilikda, o'yin o'ynash uchun foydalanardim, hozir kibersportga professional darajada qiziqib boshladim, – deydi "Besh tashabbus olimpiadasi" ishtirokchisi Shohjahon Botirov. – Bunga yoshlar yetakchisining undovi va yaratib bergan sharoitlari sabab bo'ldi. Mashg'ulotlarda o'yin texnikasini, jamoaviy ishlash, strategiya tuzish va vaqtni to'g'ri taqsimlash kabi ko'nikmalarni o'rganyapman.

INDIVIDUAL ISHLASH

Bugunga qadar Kamoladdin Egamov 128 nafar yosh bilan individual tarzda ishlagan. Jarayonda 45 nafar yoshning ijtimoiy holati o'rganilib, ular dush kelayotgan muammolar bo'yicha aniq choralar belgilandi. 40 nafar yosh turli to'garak va sport mashg'ulotlariga jalb qilindi. Yana 43 nafar yoshga bandlik borasida ko'mak ko'rsatilib, ishga joylashish yoki kasb o'rganishiga yordam berildi.

"Bitiruvchi yoshlar bandligi" dasturi doirasida 27 nafar bitiruvchi yosh ro'yxatga olinib, ularning 22 nafari ishga joylashtirildi yoki o'qishga yo'naltirildi.



"Og'ir" toifadagi 3 nafar yoshning bandligi ta'minlanib, ijtimoiy moslashuvi uchun qulay sharoit yaratildi. 2 nafar talabaning kontrakt to'lovlari qoplab berildi, yana 2 nafariga kitob to'la javonlar topshirilib, ularning intellektual rivojlanishi qo'llab-quvvatlandi.

15 nafar yoshga 3,5 gektar yer ajratildi. Bu yer maydonlarida mavsumiy ekinlar ekish orqali yoshlarning har biri 9 milliondan 15 million so'mgacha daromad olishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, "og'ir" toifadagi 18 nafar yoshdan 9 nafari uchun maxsus yer maydonlari ajratilib, ularda chorva uchun ozuqa ekinlari va sabzi yetishtirildi.

– Yoshlar bilan o'tkazilayotgan ma'rifiy darslar o'z samarasini beryapti, – deydi mahalla raisi Rahmatjon Vafoyev. – Bir vaqtlar qaysidir yosh muammo chiqarsa, darrov ayblovga o'tardik. Chunki ularga yetarli e'tibor, yo'l-yo'riq va bandlik bilan bog'liq sharoitlar yetishmasdi. Hozir esa manzilli ishlar, to'garaklar, bandlik dasturlari, individual yondashuvlar natijasida ular butunlay boshqacha bo'lib qoldi. Endi ko'p masalalarda yoshlar o'zlari yetakchi bo'lib chiqishyapti. Yoshlar faol bo'lsa, mahalla ham faol bo'ladi. Yoshlar bilan ishlashning to'g'ri yo'lini topsak, ular mahallaning eng katta tayanchiga aylanadi.

JALOIL MAHALLASI BALANSI:

Aholi:
3254 nafar;
Yoshlar:
892 nafar;
Ayol-qizlar:
464 nafar.

100 MILLION SO'MLIK LOYIHA

Mahallaning drayveri – chorvachilik va dehqonchilik bo'yicha bir qator amaliy loyihalar yo'lga qo'yildi. Jumladan, PQ-62-sonli qaror asosida 1 ta asalarichilik, 1 ta tikuvchilik, 1 ta tak-sichilik faoliyatini boshlash uchun yosh tadbirkorlarga kredit mablag'lari ajratildi. Bundan tashqari, temir eshik va deraza romlari yasash yo'nalishida 100 million so'mlik loyiha moliyalashtirilmoqda. Bu tashabbuslar mahalla iqtisodiyotining yangi tarmoqlarini shakllantirib, yoshlar o'rtasida tadbirkorlikka qiziqishni oshirishyapti.

Mahallada iqtidorli yoshlar bilan ishlash ham alohida e'tibor markazida bo'lib, bu borada maktab bilan hamkorlikda qator natijalarga erishildi. Hozir 3 nafar yosh fan olimpiadalariga tayyorlanayapti, xorijda tahsil olayotgan yoshlar bilan muntazam onlayn muloqotlar tashkil etilib, ular o'z tajribalarini mahalla yoshlari bilan bo'lishmoqda. "Kitobxon yoshlar" tashabbusi davom ettirilib, 26-maktabda "Kitob – bilim manbayi" mavzusida ma'rifiy suhbatlar o'tkazildi. 12 nafar yosh ingliz tili to'garaklariga jalb qilinib, chet tilini o'rganishga qiziqishi qo'llab-quvvatlandi.

"Zakovat" intellektual o'yinining tuman bosqichida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyat, Xorazm viloyati hokimi kubogida 3-o'rinni egallagan intellektual sohada ham mahalla yoshlari munosib natijalarga erishganiga misoldir. Bu yutuqlar uchun yoshlar 5 million so'mlik pul mukofoti bilan taqdirlandi.



MEHNATNING ROHATI

Jaloil mahallasi "Tashabbusli sport" loyihasida stritbol hamda vorkaut maydonchasi yutib olgan. Bu maydonchalar ayni damda yoshlar uchun mashg'ulot va sog'lom turmush tarzining asosiy maskaniga aylangan.

– Yoshlar bilan ishlash bir martalik tadbir emas, balki doimiy jarayon. Mahallada o'tgan yilgi mamlumiy yoshlarning bugungi holatini ko'rsangiz, bu mehnatning qanchalik samarali ekanini his qilasiz. Bizning maqsad yoshlar uchun imkoniyat yaratish, qolganini ular o'zlari qiladi, – deydi yoshlar yetakchisi.

Aslida yoshlar siyosatining butun falsafasi ham shunda: yo'l ochish, imkon yaratish, ko'mak berish. Bugun Jaloil sport maydonlarida yugurayotgan bolalarning sho'x kulgisi, AT kurslaridagi yoshlarning intilishi, dehqonchilikdan daromad topgan yigitlarning mamnuniyati – ularning barchasi 8 oylik mehnatning natijasi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

2+6 KELAJAKKA KATTA INVESTITSIYA

Xolisxon UMAROVA,
TDYU o'qituvchisi

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-oktabrdagi 632-sonli qarori bilan xorijiy tillar, xususan, ingliz, nemis, fransuz, yapon, koreys va xitoy tillarini o'rganayotgan yoshlarning nodavlat ta'lim tashkilotlari (o'quv markazlari)da oflayn shaklda o'qish xarajatlarining bir qismi uchun subsidiya ajratish tartibi belgilandi. Dasturda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etishi mumkin.

“2+6” dasturiga muvofiq yoshlarga har oy yakuni bo'yicha Toshkent shahrida BHMning 2 baravarigacha, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat markazlarida BHMning 1,5 baravarigacha, tuman-shaharlarda BHMning 1 baravarigacha subsidiya ajratilishi mumkin. Bular maksimal miqdorlar bo'lib, haqiqiy summa o'quv markazining xizmat ko'rsatish narxidan kelib chiqadi, ammo o'quv kursi narxi joylarda ajratilishi mumkin bo'lgan subsidiyaning maksimal miqdoridan ortib ketmasligi kerak.

Subsidiya ajratish uchun ariza beruvchilar soni belgilangan bo'lib, Yoshlar ishlar agentligi 2025-2026-yillardan 2031-yilgacha har yili 20 ming nafargacha yoshga o'qish xarajatlari uchun subsidiya ajratishi mumkin.

SUBSIDIYA AJRATISH BOSQICHLARI

Tillarni o'qish xarajatlari uchun subsidiya ajratish bir necha bosqichlardan iborat.

1-bosqich. O'quv markazlari o'z xohishiga ko'ra talabgorlarning chet tilini o'qitish xarajati uchun subsidiya ajratiladigan o'quv markazlari ro'yxatiga kiritishni so'rab elektron platforma orqali ariza yuboradi.

2-bosqich. Yoshlar ishlari agentligi o'quv markazlari taqdim etgan hujjatlarni o'rganib, belgilangan talablarga muvofiq deb topsa, o'quvchilar mashg'ulotlarda qatnashganini kunlik nazorat qilish imkonini beruvchi elektron tizim elektron platformaga integratsiya qilinganidan so'ng subsidiya ajratilishi haqida 10 kun ichida xabarnoma yuboradi.

3-bosqich. O'quv markazi o'quvchilarning mashg'ulotlarda qatnashganini kunlik nazorat qiluvchi elektron tizimni belgilangan tartibda Yoshlar ishlari agentligining elektron platformasiga integratsiya qilganidan so'ng subsidiya ajratiladigan o'quv markazlari ro'yxatiga kiritiladi.



4-bosqich. Dasturda qatnashish istagidagi yosh xorijiy tilni bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikatni ilova qilgan holda o'qish xarajatlari uchun subsidiya ajratishni so'rab (sertifikat berilgan sanadan boshlab bir yil muddatda) elektron platforma orqali ariza yuboradi.

5-bosqich. Yoshlar ishlari agentligi 7 kun ichida talabgorning sertifikatini verifikatsiyadan o'tkazadi. Sertifikatning haqiqiyliги tasdiqlangandan so'ng ariza beruvchiga o'quv markazi bilan ikki tomonlama shartnoma imzolash imkonini yaratib beradi.

6-bosqich. Ariza beruvchi elektron platforma orqali shartnoma shaklini (xorijiy til yo'nalishi, o'quv markazi, o'qituvchi, dars kunlarini tanlash orqali) to'ldiradi va yagona identifikatsiya tizimi (OneID) orqali shartnomani bir tomonlama imzolab, o'quv markaziga yuboradi. O'quv markazi 7 kun ichida shartnomani ko'rib chiqib imzolaydi yoki asoslantirilgan holda rad etadi.

7-bosqich. Talabgor shartnomaga muvofiq dastlabki ikki oylik o'qish xarajatini o'z hisobidan elektron platforma orqali o'quv markaziga to'laydi.

8-bosqich. O'quv markazida o'z hisobidan ikki oy tahsil olgan yoshlarga uchinish o'ydin boshlab o'quv markazi elektron platforma orqali yuborgan hisob-fakturaga asosan ariza beruvchining davomatiga mutanosib ravishda Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan o'quv mar-

kazining tegishli bank hisobvarag'iga shartnomada belgilangan muddatlarda subsidiya o'tkazib boriladi.

Ushbu to'lovlar haqida ariza beruvchining elektron platformadagi shaxsiy kabinetiga xabarnoma yuboradi.

SUBSIDIYA AJRATISHNI RAD ETISH

“2+6” dasturi barcha murojaatchilarga subsidiya ajratilishini kafolatlamaydi. Quyidagi hollarda ariza rad etiladi:

- muqaddam davlat ijtimoiy yordamlari doirasida ayni shu xorijiy tilni o'rganish uchun mablag' ajratilgan bo'lsa;

- Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 209-son qaroriga muvofiq ushbu xorijiy til bo'yicha imtihon topshirish xarajatlari qoplab berilgan bo'lsa;
- xorijiy tilni o'qish xarajati uchun Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-sonli qaroriga muvofiq “Yoshlar daftari” jamg'armasi hisobidan subsidiya ajratilgan bo'lsa.

Shuningdek, Nizom bo'yicha ariza beruvchilarga faqat bitta xorijiy tilni o'qish xarajatlari uchun subsidiya ajratiladi.

Dasturda ishtirok etish istagidagi yoshlar ariza topshirilayotgan paytdan oldingi 1 kalendar yil ichida tegishli xorijiy til bo'yicha o'qish xarajati qoplanishi uchun lozim bo'lgan balning (darajaning) minimal ko'rsatkichiga ega bo'lishi va buni tegishli sertifikat bilan tasdiqlashi lozim.

Imkoniyat

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Bunday minimal ko'rsatkichlar qarorda keltirib o'tilgan. Masalan, agar talabgor ingliz tilini o'rganish uchun 2026-yil 16-martda ariza yuborayotgan bo'lsa, unda u 2025-yil 16-martdan 2026-yil 16-martgacha bo'lgan muddatda ingliz tilidan B1 darajadagi (yoki imtihon turiga qarab uning muqobili) sertifikat olgan bo'lishi kerak. Aks holda subsidiya ajratilishi rad etiladi. **Bunday xalqaro sertifikatlar ro'yxati qatorida “Ibrat farzandlari” loyihasining maxsus sertifikati ham qayd etilgan** bo'lib, ingliz tilidan B2, fransuz, nemis, xitoy, yapon, koreys tillaridan esa B1 darajadagi sertifikatga ega yoshlar ham dasturda ishtirok etishlari mumkin.

DASTURNING AHAMIYATI

Chet tillarni o'rganish uzoq va mablag' talab etadigan jarayon. Bunda moddiy qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Shu bois “2+6” dasturi yoshlar uchun ulkan imkoniyat va rag'bat bo'lib xizmat qilishi kutilmoqda.

Dastur ishtirokchilari bu orqali xorijiy tillar bo'yicha xalqaro sertifikatlarni olishga yana bir qadam yaqinlashadi. Masalan, talabgor chet tili bo'yicha oxirgi bir yilda kamida B1 darajadagi sertifikatni olgan bo'lsa, dasturda bilimlarini yanada rivojlantirib, yuqori darajalarni qo'lga kiritishi mumkin. Bundan tashqari, mazkur qarorda yoshlarning Vazirlar Mahkamasining 209-sonli “Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan yoshlarga imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berish tartibini joriy etish to'g'risida”gi qarori asosida tegishli ball to'plagan yoshlarga imtihon xarajatlari qoplab berilishiga nisbatan hech qanday to'sqinlik mavjud emas. Shu sababdan yoshlar ham subsidiya asosida til o'rganishi, ham imtihon topshirish xarajatlari uchun kompensatsiya olishlari mumkin.

Dastur til o'rganuvchi yoshlarning ota-onalariga qator afzalliklar yaratadi. Birinchidan, bu ularga moliyaviy jihatdan yengillik yaratadi, ikkinchidan, farzandlarining sifati ta'lim olishi kafolatlanadi. Chunki Yoshlar ishlari agentligining elektron platformasiga kiritilgan o'quv markazlarida ta'lim sifati davlat nazoratida bo'ladi. Ota-onalar farzandi qaysi markazga borishini platformadan ko'rib, reytingini bilib turishi mumkin.

Dastur jamiyat uchun uzoq muddatli foyda keltiradi. Avvalo, chet tilini o'rganish uchun qo'shimcha sharoit yaratadi. 100 ming yoshning tillarni puxta o'rganishi bilimli, malakali kadrlar sonining ko'payishiga olib keladi. Natijada jamiyatda axborot almashinuvi tezlashib, yoshlarning dunyoqarashi yanada kengayadi, yangi innovatsiyalar kirib keladi. Bu kelgusida xorijiy investorlar bilan ishlash, xalqaro tashkilotlarda faoliyat yuritish, tarjimonlik va tillarni o'qitish sohaslarida salohiyatli mutaxassislar zaxirasini yaratishga xizmat qiladi.



HUQUQIY TEXNOLOGIYALAR XAVFSIZLIGI

AXBOROT XAVFSIZLIGIDAN TORROQ, ANIQROQ VA YURIDIK SOHAGA QARATILGAN TUSHUNCHA

Sud jarayonlari, hujjatlar bilan ishlash, yuridik maslahatlar, hatto shartnomalar tuzish jarayoni elektron maydonga ko'chmoqda. “Legal Tech” (huquqiy texnologiyalar) deb ataladigan ushbu yangi yo'nalish yuridik faoliyatni yanada qulay va tezkor qiladi. Ammo texnologiyalar qanchalik foydali bo'lmasin, axborot xavfsizligi, maxfiylik va kiberhujumlar kabi xavf-xatarlar ortib bormoqda. Ayniqsa, yuridik ma'lumotlar: sud materiallari, advokat-mijoz muloqotlari, shaxsiy hujjatlar eng nozik axborotlar sirasiga kiradi. Ularning buzilishi yoki o'g'irlanishi nafaqat bir inson, balki butun tizim uchun jiddiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Shu sababli huquqiy texnologiyalar sohasida kiberxavfsizlikni ta'minlash O'zbekiston uchun dolzarb vazifalardan biriga aylandi. So'nggi yillarda axborot xavfsizligi bo'yicha bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, yuridik texnologiyalarni himoya qilishga qaratilgan alohida mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan. Raqamli yondashuvlar kengayib borar ekan huquq sohasida xalqaro standartlarga moslashtirilgan yangi qoidalar, aniq tushuncha va zamonaviy yondashuvlar zarur.

Hozirgi vaqtda milliy axborot xavfsizligiga oid O'zbekiston Respublikasining Axborot xavfsizligi doktrinasini, O'zbekiston Respublikasida axborot jamiyatini rivojlantirish strategiyasi va boshqa hujjatlar bor. Biroq rasmiy hujjatlarimizda “huquqiy texnologiyalar kiberxavfsizligi” atamasi “axborot xavfsizligi” tushunchasidan ajratilmaydi va alohida ishlatilmaydi. Huquqiy texnologiyalar kiberxavfsizligi umumiy axborot xavfsizligidan farqli ravishda faqat elektron ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgani bois alohida tartibga solishni talab qiladi.

Huquqiy texnologiyalar kiberxavfsizligi haqida dunyoda ko'plab ilmiy

tadqiqotlar, amaliy ishlarni va davlat strategiyalari mavjud. Xorij tajribasida yuridik texnologiyalarni himoyalash alohida yo'nalish sifatida ko'riladi va “cybersecurity” tushunchasi faqat umumiy axborot xavfsizligini emas, sektorlar bo'yicha aniq sohalarni qamrab oladi. Ko'pgina davlatlar yuridik ma'lumotlarning nozikligi va ular bilan bog'liq xavf darajasi yuqoriligi uchun huquqiy texnologiyalar kiberxavfsizligini mustaqil toifa sifatida belgilab qo'ygan.

Axborot xavfsizligi doktrinasida davlat faoliyatini axborot bilan ta'minlash va mahalliy ommaviy axborot vositalari, aloqa va aloqa sanoati sohasini rivojlantirish zarurati nazarda tutilgan. Siyosiy fanlar doktori, professor A.Toirov “Hozirgi sharoitda O'zbekistonni xorijda ishonchli ma'lumotlar asosida xolis idrok etishni targ'ib qilish nafaqat xalqaro obro' -e'tibor, balki milliy xavfsizlik muammosidir”, degan fikrni aytadi.

Sohada kiberhujumlar odatda uch xil xavf tug'diradi: ma'lumotlarni yo'q qilish, bloklash yoki o'g'irlash. Eng avfliasi – ma'lumotlarning o'chib ketishi. Chunki ko'plab sud jarayonlari, dalil yozmalar, shartnoma arxivlari elektron shaklda. Agar ular yo'qolsa, qayta tiklab bo'lmazligi mumkin. Ikkinchi xavf – ma'lumotni bloklash holatida tizim ishlamay qoladi, sud jarayonlarida kechikishlar yuzaga keladi. Ma'lumotlarni o'g'irlash esa shaxsiy hamda maxfiy hujjatlar tarqalib ketishiga sabab bo'ladi.

Yuridik texnologiyalar xavfsizligi faqatgina huquq yoki sud tizimi uchun emas, butun jamiyat manfaatlari uchun katta ahamiyatga ega. Legal tech kiberxavfsizligi axborot xavfsizligidan ko'ra torroq, aniqroq va yuridik sohaga qaratilgan tushuncha hisoblanadi. U yuridik jarayonlarni xavfsiz, ishonchli va adolatli olib borishda muhim o'rin tutadi.

Feruza NORQULOVA,
TDYU talabasi

O'tasi BILAN TORTISHADIGANLAR ERTA QARIYDI



O'tasi bilan tez-tez ziddiyatga borgan va tengdoshlari bilan ko'p nizolashgan o'smirlarda biologik qarish tezlashishi mumkin. Virginiya universiteti olimlari shunday xulosaga keldi.

17 yillik kuzatuvlar davomida 123 nafar o'smirda tadqiqot olib borilgan. Yakunda 13–20 yoshida o'tasi bilan keskin munosabatda bo'lgan va do'stlariga nisbatan agressiv kayfiyatdagi o'smirlarda 30 yoshga borganida biologik qarish jarayoni kuchaygani aniqlangan.

Organizm holatini baholashda xolesterin darajasi, qon bosimi, qondagi qand miqdori, oqsillarni o'z ichiga olgan ko'rsatkichlardan foydalangan olimlar tekshiruvlarda aynan ziddiyatlar, ayniqsa, otalar bilan kelishmovchiliklar qarishni tezlashtiradi degan xulosaga kelgan.

Tadqiqot muallifi professor Jozef Allenning so'zlariga ko'ra, ota bilan ziddiyat o'smirlarda stressni oshiradi hamda yurak-qontomir va immun tizimlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Olimlar o'smirlik davridagi ziddiyatli munosabatlar nafaqat ruhiy muammo, balki uzoq umr ko'rishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligini ta'kidlamogda. Ularning so'zlariga ko'ra, erta qarishning oldini olishda oila va atrofdagi do'stona muhitning yaratilishi juda muhim hisoblanadi.

Tadqiqot



“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASI DOIRASIDA KO'CHAT EKISH BOSHLANDI

2025-yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Navoiy viloyatida kuz mavsumida 8 million 842 ming dona manzarali, mevali daraxtlar va buta ko'chatlari ekish rejalashtirilgan.

Mazkur ko'chatlar ekish jarayoni 11 ta shahar va tumanlar hamda 15 ta soha kesimida taqsimot qilingan. Viloyat hokimligining 1-noyabrdan 10-dekabrgacha dolzarb 40 kunlik reja-grafigi ishlab chiqilgan. Unga asosan nazorat shtabi faoliyat yuritib, har kunlik monitoring olib borilmoqda.

Karmana tumanida 200 gektar yerga yangicha tartib bo'yicha markazlashgan holda 80 ta korxona va tashkilotlar tomonidan ko'chatlar ekish ishlari boshlandi.

rok etib, 3 ming tupdan ortiq manzarali daraxt ko'chatlari ekdi. Kuzgi daraxt ekish aksiyasi doirasida 50 nafar xodimimiz ishtirok etdi.

Loyiha doirasida M-37 avtomagistral yo'lining Karmana tumanidan o'tgan qismidagi 300 gektar yerda viloyatning yirik korxonalari – “Navoiy kon-metallurgiya kombinati”, “Navoiyazot”, “Qizilqumsement”, va “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan ko'chat ekish ishlari olib boriladi. “Navoiyuran” davlat korxonasi esa Konimex tumanining Zafarobod shaharchasi hamda Uchquduq tumanida ajratilgan yer maydonlarida yashil makonlar tashkil etadi.

Abduvali BO'RIYEV, O'ZA muxbiri

BURNOUT

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

BU O'ZI NIMA DEGANI?

Burnout tushunchasini birinchi marta 1970-yillarda amerikalik psixolog Herbert Freydenberger ilgari surgan. U buni ish faoliyatidagi kuchli charchoq va ruhiy tushkunlikni ifodalash uchun ishlatgan.

Burnout sindromi asosan uzoq muddat yuqori bosim ostida ishlash, stressli vaziyatlar va haddan ortiq talablar natijasida yuzaga keladi. Bu holat ruhiy, jismoniy va hissiy quvvatning kamayishiga olib keladi, ishga va atrofdagilarga munosabatni salbiy tomonga o'zgartiradi.

“BITTA MEN OMADSIZMAN...”

Bilim olish jarayonidagi murakkabliklar, kasb tanlashdagi noaniqlik, ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy rivojlanish kabilar burnout sindromi xavfini oshiradi. Yoshlar doimiy ravishda o'zlarini namoyon etish, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lish va zamonaviy dunyoning tezkor o'zgarishlariga moslashishga harakat qiladi. Jarayondagi psixologik zo'riqishlar ko'pincha ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bunga sabab bo'luvchi eng katta omil – raqamli hayot. Instagram, TikTok yoki Telegram lentasida boshqalarning “muaffaqiyat hikoyalari” uzluksiz aylanadi: kimdir 20 yoshida katta biznes egasi, chet elda yallo qilib yuribdi, biri o'qishni tamomlab, yaxshi ishga kirgan, boshqasi yangi uy yoki mashina olgan...

Tarmoqlarda kimningdir puxta tahrirlangan hayot versiyasini ko'rib, reallikdan uzoqlashamiz. Go'yo biz qorong'i bo'shliqqa tushib qolgandek, dunyo boshqalar uchun o'yin maydonchasi, biz uchun esa jang maydoni bo'lib ko'rinadi. Doimiy solishtirish, ichki toqatsizlik, o'zidan qoniqmaslik. Miya bunday axborotdan charchaydi, shu bilan birga halovatni ham yo'qotadi. Oqibatda yoshlar hatto dam olish paytida ham dam ololmaydi, ularning miyasi “boshqalardan ortda




“GO'YO BIZ QORONG'I BO'SHLIQQA TUSHIB QOLGANDEK, DUNYO BOSHQALAR UCHUN O'YIN MAYDONCHASI, BIZ UCHUN ESA JANG MAYDONI BO'LIB KO'RINADI.

qolyapman”, “men ham ulardek bo'lishim kerak” degan zo'raki fikrlar ostida ishlaydi.

Yoki aksar oilalarda farzandga talab shunday: “Yaxshi o'qiy-san, yaxshi o'qishga kirasan, yaxshi ish topasan, hurmatli odam bo'lasan”.

Ammo aslida hammasi ham bunday emas. Qaysidir yosh o'qishni emas, hunar egalashni xohlaydi, kimgadir yaxshi ish emas, o'zi yoqtiradigan, qalbi xotirjam bo'ladigan ish kerak. Biroq buni ko'pchilik ota-onalar qabul qila olmaydi. Oqibatda farzand o'zi uchun emas, ota-onasining jamiyatdagi nufuzi uchun kurashib, doimiy bosim ostida yashaydi. Bu ichki tanqidni kuchaytiradi va erkinlikni bo'g'adi. Orzu bilan majburiyat o'rtasidagi keskin nomutanosiblik charchoqni tezlashtiradi.

Ustiga ustak, bugungi talaba ishlashga majbur. Oilasiga yordam berish, o'zini o'zi eplash, qo'shimcha kurs va sertifikatlar pul topish uchun ishlaydi. Qarabsizki, 20 yoshga ham to'lmagan yosh dam olishga ham vaqt topa olmay “o'qish — ish marafoni”da yugurib yuribdi. Natijada sog'lom turmush tarzi buziladi, to'yib uxlamaslik, jismoniy faollik yetishmasligidan hissiy charchoq ortadi.



TALABALARNING 30–50 FOIZI?

So'nggi yillardagi tadqiqotlar yoshlarda hissiy charchoq sindromi keng tarqalayotganini ko'rsatmoqda. Bu bir jihatdan ular hali ruhan to'liq shakllanmagan, ikkinchi tomondan hayoti keskin o'zgarishlar, qarorlar va talablar bilan bog'liq davr ekani bilan izohlanadi. Oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar orasida burnout darajasi 30–50 foiz atrofida deb baholalanadi.

Sindromning eng ko'p tarqalgan belgilari:

- doimiy charchoq va dangasalik hissi;
- o'qishga qiziqishning pasayishi;
- ishtiyoqsizlik;
- o'zini yakkalangan, tushkun his etish;
- ijtimoiy aloqalardan chekinish.

Vaqtida yechimlari topilmasa, bu holatlar depressiyaga, hatto jismoniy kasalliklarga ham olib kelishi mumkin.

OILA, DO'STLAR VA O'QITUVCHINING ISHONCHI

Emotsional charchoqning oldini olishda profilaktika, psixologik va ijtimoiy yondashuv muhim o'rin tutadi.

1. **Psixogigiya va o'zini anglash.** Yoshlar o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, stressni kamaytirish usullarini o'rganishi kerak. Emotsional savodxonlikni rivojlantirish burnout xavfini kamaytiradi.

2. **Vaqtini boshqarish va rejalashtirish.** Vaqtini samarali boshqarish, ortiqcha yuklamlarni kamaytirish, dam olish vaqtiga e'tibor berish muhim.

3. **Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.** Oila, do'stlar va o'qituvchilarning ijobiy munosabati, tushunish va dalda ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi.

4. **Fizik faoliyat va sog'lom turmush.** Sport bilan shug'ullanish, meditatsiya, yetarli uyqu va to'g'ri ovqatlanish ruhiy quvvatni tiklashga yordam beradi.

5. **Psixologik maslahat va korreksiya.** Burnout belgilarini erta bosqichda aniqlab, professional psixolog yordamiga murojaat qilish salbiy oqibatlarining oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Shahruza SATTOROVA tayoirladi.

“CITES COP20” DA SAN'AT ASARLARI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



– Bu yilgi simpoziumda qatnashish uchun dunyoning turli mamlakatlaridan 150 nafar haykaltarosh 300 dan ortiq eskiz taklif etdi, – deydi O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi raisi Ibrohim Valixo'jayev. – Tanlov hay'ati bu ishlarning 12 tasini tanlab oldi va ularning mualliflari bo'lgan haykaltaroshlarni yurtimizga taklif qilib, ayni paytda taqdim etilgan haykallar yasalmogda. Buning uchun ijodkorlarga kerakli va zarur hajmdagi granit toshlar keltirib berilgan. Hozir ular o'z eskizlari bo'yicha betak-

ror san'at asarlarini yaratmoqda. Simpozium qatnashchilari orasida o'zbekistonlik haykaltaroshlar ham bor.

Samarqandda mazkur xalqaro haykaltaroshlik simpoziumini yuqori saviyada o'tkazish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rilgan. Mamlakatimiz va xorijlik haykaltaroshning samarali faoliyat ko'rsatishi, o'zaro tajriba almashishi uchun kerakli sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

– Ikki yil avval Toshkentda o'tkazilgan simpoziumida ham ishtirok etganman, – deydi buyuk britaniyalik haykaltarosh Ali Jabbor. – Hakamlar hay'ati tanlovga taqdim etgan ijodiy ishimni ma'qullagani va bu yil ham ushbu katta jamoa a'zosi bo'lganimdan juda xursandman. O'zimning ajoyib asarlarimdan birini O'zbekistonda jamoat joyida qoldirayotganimdan juda xursandman.

Simpozium davomida yaratilgan mahobatli haykaltaroshlik asarlari Samarqand va Toshkent shaharlaridagi istirohat bog'lari va xiyobonlarda o'rnatiladi.

7 dekabrga qadar davom etadigan tadbir doirasida Samarqand shahridagi “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Turizm akademiyasida haykaltaroshlar ishtirokida uchrashuv va mahorat saboqlari o'tkazilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, “CITES CoP20” ishtirokchilari ham haykaltaroshlarning ish jarayonlari va ular yaratgan san'at asarlarini kelib kuzatishadi.

Ayni paytda “CITES CoP20” doirasida Samarqand xalqaro turizm markazida mamlakatimizning yuvoyi hayvonot va o'simlik dunyosiga bag'ishlangan tasviriy san'at asarlari ko'rgazmalari ham o'tkazilmoqda.

G'olib HASANOV, O'ZA muxbiri

Yoshlik ilhomlari



TAXTIDAN TUSHGAN XOTIN

TIL BILIMI

Tilimizda ko'p ishlatiladigan xotin so'zi aslida boshqa ma'noda qo'llangan: qadimda u faqat hukmdorlar oilasidagi ayollarga berilgan unvon – qatun edi. Kultegin bitiklari va “Devonu lug'otit-turk”da qatun xoqonning rafiqasi, malika sifatida tilga olinadi. Hatto qatunlandi fe'li ham bo'lib, u oddiy ayolning baland darajaga ko'tarilganini anglatgan.

Eski turkiyda xotin ma'nosida bir nechta so'zlar bo'lgan: evlik, kisi, echi, tishi, ishi, urag'ut va boshqalar. Har biri ayolning mavqeyini yoki vazifasini bildirgan. Ya'ni bir vaqtlar tilimizda ayol tushunchasi juda boy va qatlamli nomlar bilan ifodalangan.

Keyinchalik arabcha ayol so'zi kirib kelib, shu ma'nodagi barcha turkiy so'zlarni siqib chiqardi. Ilgari malika, saida ma'nosida bo'lgan qatun ham o'z toj-u taxtidan ajralib, oddiy xotin sifatida yashab qoldi. Uning o'rnini arabcha malika egalladi.

Endi savol tug'iladi: ayol qanday so'z o'zi? U arabcha عَلا (aula) o'zagidan yasalgan bo'lib, erkak kishining qaramog'idagi shaxs ma'nosini anglatadi. Oila so'zi ham shu o'zakdan. Dastlab ahli ayol shaklida ishlatilgan bu ibora erkak kishining qaramog'idagi shaxslar, ya'ni butun oilani bildirgan. Keyinchalik qisqarib, ayolga aylangan va hozirgi ma'noni olgan.

Abduvohid HAYIT maqolasi asosida **Orif TOLIB** tayyorlagan.



Ruxsora LUQMONOVA

BUTUN BIR KUZ O'TDI! SENSIZ...

Yomg'ir, shamol, tun cho'kadi tiz, Tuyqus yuragimni bosar kuz hissi. Seniki bo'lmagan bir begona iz O'lis so'g'moqlardan so'ylaydi qissa.

Xotirdan baxt izlab o'tgan tunlarga Ertaging aytaman: baxtlar bir etak. Yulduzlar va osmon, orzu va yana Jimliklarim haqda so'zlashim kerak.

Ming yillik sukutlar aro yo'qolgan Qalbm tovuhsini eshitarmiding? Bir hadik aralash yig'laganimda Yam-yashil yo'l aro ketgan eding jim.

Men botgan tomonda sen yo'qsan, Faqat Xotirlar ko'zimdan chiqadi balqib. Shamol qurbon qilgan yaproqlar haqqi Ayt, bizning bahorlar kelarmi qaytib?

Yomg'ir, shamol, tun cho'kadi tiz...

Menga gunoh tutar nigohing, Yuragimga topilmas chora. Meni tamom etib haroring, Sevging cho'ktiradi tobora.

Ostonada qolar iymonim, Qalbm aro o'char tunchiroq, Kim pufladi? Ketar uyg'onib Ming yil oldin ko'milgan qaroq.

Gavharimni yulib olaman Poklamoq-chun qaroqlarimni. Osmonlarga intilsam mudom, Zamin tortar oyoqlarimni

Butun bir kuz o'tdi! Sensiz, qarovsiz, Yo'laklar labidan bo'sa olar barg... Ketiblar qolasan bosib ayovsiz Dekabr tomonga... meni etib tark!

Yuragim namlana – ichga oqar yosh, Sukutimdan hayiq, jimgimdan qo'rq! Bir kuni ismimni qo'yaman “Bardosh”, Qismat – manzili yo'q otilgan bir o'q.

Nima bo'lsa bo'lar, bu yog'i taqdir, Dunyoni to'ldirib shivirlaymiz, kel! Tag'in bu tuyg'ular sarosimadir, Yig'laymiz Xudoga solib birma-bir.

(Dunyoni to'ldirib shivirlaymiz, kel...) Butun qish o'tmasin sensiz, qarovsiz!..

JADIDLAR VA GENDER TENGLIGI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Jadid maktablarida ta'lim olayotgan ayollar o'zbek xotin-qizlarining ahvoli haqida qayg'urgan. Jumladan, 1906-yilda qo'qonlik Tojiyaxon birinchi turk tili ayollar jurnaliga o'zbek ayollari nomidan xat yozib, turkistonlik ayollar ahvolidan yozg'iradi. Ya'ni Rossiyada – markazda inson huquqlari ma'lum

daraja borligini, biroq Turkistonda ayollar dunyodan bexabar ekanligi va bu butunlay ilmsizlikka yetaklashini aytib o'tadi. Har yuz ayoldan bittasigina o'qish va yozishni bilgani bilan butun kelajakni tarbiyalab bo'lmashini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy tarbiya masalasini keng doirada tushungan, tarbiyani birgina axloq tushunchasi bilan cheklab bo'lmashini anglagan. Uning fikricha, tarbiya tug'ilgan ondan boshlab to hayotning oxirigacha davom etadi. Biz bilgan hamma narsa ayni tarbiyaga bog'liq. “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”, deya Avloniy bejiz gapirmagan. “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida “*Millatning najoti ma'rifatda, ma'rifat esa tarbiyada, tarbiya esa ayolda*”, deb ayollar ta'limi butun jamiyatga ta'sir qiluvchi muhim omil ekanini uqti-radi.

Behbudiyning ijodi adabiyot, jurnalistika, ta'lim, siyosat kabi sohalarni qamrab olgan. U turkiy xalqlar adabiyotida yangi davrni

boshlab bergan yozuvchilardan biri hisoblanadi. Behbudiy asarlari orqali xalqni ma'rifatga, birlikka va ozodlikka chaqirgan. Masalan, 1915-yilda yozilgan “Yangi saodat” asari orqali Behbudiy ayollarning ta'lim olishi, huquqlari va jamiyatdagi o'rni haqida fikr bildirgan.


Behbudiy ayollarhuquqlarini himoya qilish va ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishini ham qo'llab-quvvatlab kelgan. U ayollarning ta'lim olishi, huquqlari kengaytirilishi va jamiyatda teng maqomga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. “Ayollar bilimli bo'lsa, butun jamiyat bilimli bo'ladi. Ayollar qorong'ilikda qolsa, yurtning kelajagi qorong'ilikda qoladi”, deydi Mahmudxo'ja Behbudiy.

Shu o'rinda jadidlik harakatining yana bir ulkan namoyandasi Abduraf Fitrat fikrlariga ham to'xtal-

sak. Fitrat jamiyatdagi notenglik va ta'lim sohasidagi muammolarga e'tibor qaratadi. Ayniqsa, u davlatni xarob qilgan, istiqbolga xatar bo'lgan yirik muammo – ayollar-ning ta'lim olish zaruriyatini o'rtaga tashlaydi. “...millatning ilk tarbiyasi ayollar qo'lida kechadi. Ilm va idrok egasi bo'lmagan noqobil ona o'z farzandining ham qobiliyatsiz bo'lib qolishiga sherik bo'ladi, bas, shunday ekan, qizlar tahsili millat uchun eng zarur muammo darajasiga ko'tarilishi, xuddi erlar kabi ular tahsil va takomilga loyiqligi Qur'oniy dalillar bilan isbotlangan”, deya

qat'iy fikrlar bildiradi. Uning “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari”, “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti” kabi asarlarida ham ayni mavzuga doir fikrlari aks etadi.

“AYOLLAR BILIMLI BO'LSA, BUTUN JAMIYAT BILIMLI BO'LADI. AYOLLAR QORONG'ILIKDA QOLSA, YURTNING KELAJAGI QORONG'ILIKDA QOLADI”



Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboa. Korxona manzili: Buyuk Turan ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-1108, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis: O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi

Bosh muharrir: **Hamza ABDULLAYEV**

Bosh hamkor: O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir o'rinbosari: Shahobiddin LUQMON

Mas'ul muharrir: Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

Fotograf: Xolida MUSULMON